

# Rauf Parfi She'riyatida "Borliq→Odam" Kognitiv Modelidagi Antroposentrik Metaforalar Tadqiqi

*Dedaxanova Muazzam Altmishbayevna<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** O'zbek modern she'riyati misolida metaforik ifodalarning leksik-semantik xususiyatlarini tadqiq etish, modern poetik manzarani shakllantirishda antroposentrik metaforalar rolini o'rganish alohida e'tibor talab qiladi. Shu bois mazkur maqola Rauf Parfi ijodidagi antroposentrik metaforalarning lingvokognitiv tadqiqi masalasiga bag'ishlanadi. Unda metaforik ifodalarning kognitiv modellarini aniqlash maqsad qilingan.

**Kalit so'zlar:** antroposentrik metafora, zoomorfik, fitomorfik, kosmomorfik, abiomorfik, teomorfik, abstraktomorfik.

## KIRISH (INTRODUCTION)

She'riy matnlarda ko'chma ma'no hosil qilishning kognitiv metaforik modellarini aniqlash bugungi kunning dolzarb mavzularidan biridir. Lingvistik nazariyalarning rivojlanishida metafora tabiatining bir qator jihatlari o'rganilmay qolayotganini hisobga olib, poetik metaforani zamonaviy yo'nalishlar nuqtayi nazaridan yoritish jiddiy izlanish talab qiladi. Shuni inobatga olib, Rauf Parfi ijodida qo'llangan antroposentrik metaforalarga to'xtalib o'tishni lozim topildi.

Dunyo tilshunosligida N.D.Arutyunova, Yu.D.Apresyan, V.N.Teliya, A.A.Ufimtseva, V.G.Gak, Ye.V.Urison, B.A.Serebrennikov, T.V.Bo'ligina, A.D.Shmelev, G.S.Nasrullayeva, R.U.Madjidova va boshqa olimlar til birliklarining antroposentrik jihatini turli yondashuvlar asosida tadqiq etishgan.

## NATIJA VA MUNOZARA (RESULTS AND DISCUSSION)

Antroposentrik – bu inson olamning markazi va eng oliy maqsadi degan g'oyaga sodiq qolish [11], demakdir. Ta'kidlash joizki, "tilshunoslikda antroposentrik paradigma inson omili, uning aqliy va hissiy olami, tashqi dunyo bilan aloqasiga bo'lgan qiziqish natijasida rivojlandi" [7, B. 14]. Tilshunos G.S.Nasrullayeva o'z tadqiqotida antroposentrik metafora talqinini "olam insonda" va "inson olamda" kognitiv modeli asosida "inson→borliq" hamda "borliq→inson" munosabatiga tayangan holda yoritib beradi [8, B. 11-12]. Biz ham Rauf Parfi she'riyati tahlilini mazkur model misolida tahlil qilishni ma'qul ko'rdik. Biroq ayrim o'rinlarda inson nomiga loyiq bo'lmagan xarakterli kimsalar nazarda tutilganligini inobatga olib, "ODAM→BORLIQ" va "BORLIQ→ODAM" kognitiv modelida masalani yoritishni lozim topdik, boshqa ma'no turlarini esa mazkur ikki tasnif tarkibida tahlil qilishni o'rinli, ma'qul ko'rdik. Mazkur maqolada "BORLIQ→ODAM" kognitiv modelidagi antroposentrik metaforalarga to'xtalib o'tildi.

"BORLIQ→ODAM" kognitiv modelda namoyon bo'ladigan antroposentrik metaforalar insonni tavsiflovchi "noinsoniy" mavjudot ifoda vositalarining tegishli ko'chma ma'nosi asosida hosil qilinadi. Insonning tana a'zolari, tashqi ko'rinishlari, xatti-harakatlari, holatini tasvirlashda dunyo hodisalari ifodasi o'ziga xos kognitiv vazifani bajaradi, bular:

**1) jonzot → odam**, ya'ni **zoomorfik metaforalar** hayvonot olami, parranda va ularning xususiyati insonga nisbatan metaforik asosda ko'chirilishi orqali yuzaga keladi:

*Qaydandir bu nido, hazin va karaxt?!*

<sup>1</sup> Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti



*Nechun ketmas qora qarg‘alar nari?*

*Qarang, ingillagan itlarga qarang* [Sakina; B. 178].

Qora QARG‘Alar → G‘IYBATCHIlar, ITlar → HASADGO‘Ylar. Ular ichiqoralik bilan maqsadga erishuvchi – lirik qahramonning ruhiyatiga shu qadar ta‘sir o‘tkazishmoqdaki, e‘tiborsiz bo‘lolmay, umidsizlikdan karaxt holga keladi u.

Ta‘kidlash joizki, zoonimika (*zoonimiya*) – hayvonlarga qo‘yilgan (shartli) atoqli nomlar [9], laqablarni o‘rganuvchi soha bo‘lib, bu o‘rinda onomastika, ya‘ni nomshunoslikka doir atoqli otlarni emas, balki *apelyativ* (lotincha *arrellativit – turdosh ot*) [6, B. 16] xarakterdagi antropotsentrik metaforalarni tahlilga tortganmiz. Shu bois zoomorfik (zoo –hayvon, morf - shakl) metafora atamasini qo‘llashni ma‘qul ko‘rdik.

2) *o‘simlik* → **odam**, ya‘ni **fitomorfik metaforalar** antropotsentrik metaforalar sirasida o‘ziga xos mavqei bilan ajralib turadi. Poeziyada ma‘shuqaga nisbatan *sarv, gul, lola, shamshod* kabi qator so‘zlar qo‘llanilib, metaforik ifoda vazifasini bajaradi [8, B. 12]. Masalan: “*G‘aroyib gullarim bordir narida. Gulim, ko‘rmagansan umringda hali*” [Sakina; B. 101]. Bu o‘rinda *gul* so‘zi o‘z (*gullarim*) va ko‘chma (*Gulim*) ma‘nosida qo‘llangan.

Quyidagi misralarda esa gulning metaforik ma‘nosi ham ochib berilgan:

*Ko‘rdim yuzingizni, chatnadi olam,*

*Buzg‘unzor qo‘ynida ungan sof gulim.*

*Majruhlar yurtida xo‘rlangan onam,*

*Zo‘rlangan qonsinglim, mangu sevgilim* [Sakina; B. 248].

#### 1-jadval. “GUL” konseptual metaforasi.

ONA	GUL
SINGIL	
YOR	
AYOL	

3) *osmon jismi* → **odam**, ya‘ni **kosmomorfik metafora**. Ma‘lumki, kosmonim (yunoncha *xostos - kosmos, olam, koinot + onoma - atoqli ot*) - kosmik fazoda joylashgan samoviy obyektlarning atoqli oti, onomastik ko‘lam [6, B. 41] so‘zlaridan biridir. Biz ham G.S.Nasrullayeva kabi ko‘chma ma‘nodagi osmon jismlariga nisbatan umumiy ma‘noda **kosmomorfik metafora** atamasini qo‘llashni o‘rinli deb bildik. Turdosh ot shaklidagi koinot obyektlari: oy, kuyosh va boshqa fazoviy jismlar Rauf Parfi ijodida ham insonga nisbatan behad ko‘p qo‘llanadi. *Telba — otash deb meni pinhon, O‘ylama sen, mening yulduzim* [Sakina; B. 132]. Bu yerda *telba — otash* → oshiq bo‘lsa, YULDUZ → MA‘SHUQA hisoblanadi.

Quyidagi misralarda esa kun davomida birgalikda kezib, kechki vaqt uyquga ketgan Quyosh she‘r so‘ngida sochlarni yoygani bois tun qiyofasiga kirgan ma‘shuqaning metaforik timsoli bo‘lib chiqadi:

Kuni bo‘yi men bilan kezib,

Quyosh uyquga ketguncha,

Men o‘ylayman Seni, azizim...

Endi lekin nigohing istab,

Va darbadar emasman ortiq —

Chunki o‘zing kelding yonimga,

Tim qora sochlaringni yozib,

Oppoq nurli qo‘llaring ila



Yuragimga ishqingni yozib [Sakina; B. 296]...

## 2-jadval. MA'SHUQA konseptida zidlik ifodasi.

uyqudagi QUYOSH	MA'SHUQA
TUN	

4) **predmet** → **odam**, ya'ni **abimorfik metafora**. Insonga nisbatan qo'llanadigan tabiatdagi jonsiz narsalarni ifodalovchi leksemalarning metaforik ma'nolari ularning o'zi kabi behad ko'pligi bilan xarakterlanadi [8, B. 12]:

*Sizni tanimayman, sizni bilmayman,*

*Siz mening yo'qotgan oltinim* [Sakina; B. 239].

Misralar tarkibidagi *oltin* abionimi metaforik ma'noni ifoda etgani ochiq namoyon bo'lib turibdi. Lekin bunday metaforalarning ko'pchiligi lisoniy tabiatga ega bo'lmaganligi bois lug'atlardan joy olmagan.

Inson madaniyat subyekti sifatida uning vujudga kelishi va tilda aks etishini ifoda etadi. Shu sabab antropotsentrik metaforada til va madaniyat mushtarakligi boshqa metaforalarga nisbatan yaqqolroq namoyon bo'ladi. Insonda tabiat hodisalari, tabiatda inson xususiyatlarini ko'rish tafakkurning asotiriy davri an'alarining saqlanib qolganligi bilan bog'liq. Shuni inobatga olib, antropotsentrik metaforalarning keyingi turlari sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin.

5) **ilohiy timsol** → **odam**, ya'ni **teomorfik metaforalar**. Avvalo, ta'kidlash kerakki, "*teonim*" (yunoncha teog - *xudo* (*Alloh*) - *onoma* - *atoqli ot*) - Allohning nomi va atributlarining atoqli oti degan ma'noni bildiradi. "*Teonimiya*" esa shunday atoqli otlarning to'plami, yig'indisi, "*teonimika*" shunday onomastik ko'lamga mansub atoqli otlarni o'rganuvchi soha ma'nosini bildiradi [6, B. 75]. Demak, teonim atamasi negizida "turli diniy tasavvurlar bo'yicha xudolar, ma'budlar, diniy afsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlari"ni tushunish mumkin [9]. Biz atoqli va turdosh otlarni umumlashtirgan holda **teomorfik** atamasini qo'llashni ma'qul ko'rdik. Ular Rauf Parfi ijodida ham uchraydi: "*Yamaning ruhiga sokin so'yladim*" [Sakina; B. 282], "*Ay Sen miskin Iymon, ay sen sho'rlik Xoch, Tur, uyg'on, ay Xurmuz, chalqindi Charvat*" [Sakina; B. 282], "*Toshlarga yukunma, o'tlarga yukun...*" [Sakina; B. 284], "*Bu senmi, Ahraman, yovuz qahramon*" [Sakina; B. 280]. Bu yerda ilohiy xarakterdagi *Yama* (o'lim ma'budi), *tosh* va *Ahraman* (Axriman – zardushtiylilik dinida zulmat, yovuzlik xudosi) yomon kimsalar, *o't* (olov) esa yaxshi odamlar timsolida konseptual metaforani yuzaga keltirgan. *Iymon* – islom dini, *Xoch* – xristian, *Xurmuz* (Axura Mazda) – otashparastlik dini vakillarini o'zida aks ettirib, aloqadorlik asosida antropotsentrik konseptual metonimiyani hosil qilgan.

Quyidagi misralarda ham teomorfik metaforalar ilohiy kuchga ega obrazlarning insonga nisbatan qo'llanishidan yuzaga kelgan: *Uyg'on, ey malagim, tur, o'rningdan tur* [Sakina; B. 85]. *Mening yuragimga kelgil, malagim* [Sakina; B. 101]. *Ko'rib ketdi Azroil ham atayin* [Sakina; B. 260]. *Og'zingga tupurgan shaytoni layin, Pul desa o'zingni tomdan otasan* [Sakina; B. 259]. Dastlabki misollarda ma'shuqa malak – farishtaga qiyoslanishi orqali **teomorfik metafora** ochiq anglashilib turibdi. Keyingi misollarda esa *Azroil* va *shaytoni layin*, haqiqatan ham, o'sha ishni amalga oshirmagani, balki ularga o'xshash kimsalar nazarda tutilgani negizida metafora aks etgan.

6) **fantastik timsol** → **odam**, ya'ni **mifomorfik metaforalar** – xayoliy-to'qima obrazlarning nomlari [9] bo'lib, ular Rauf Parfi lirikasida yovuz odamlar qiyofasida aks etgan: "*Yalang'och yobonda bir ins ko'rindi... Sariq alvastilar bo'ldi namoyon... Sen ey o'laksaxo'r, ey iringanch maxluq!*" [Sakina; B. 280].

7) **mavhum timsol** → **odam**, ya'ni insonga nisbatan qo'llangan mavhum otlar jonli mavjudotdek tasvirlanib, shoir ijodida talaygina uchraydi. Shu bois ularni ham shartli ravishda **abstraktomorfik metafora** deya alohida turga ajratishimiz mumkin, ularning ko'pchiligi apostrofa usulida qo'llangan. Unga doir ayrim misollarni ko'rib o'tsak:



*Qismat, hayron bo'lib qarama,*

*Axir ayirmading qahr-u g'azabdan* [Sakina; B. 200].

Yoki: *Ey sen, so 'qir quvva', ey sen, chirkin taxt,*

*Tug'dirgan tuxmingning oqini ichding* [Sakina; B. 266].

Misralardagi *qismat, so 'qir quvva' (ko 'zi ojiz kuch)* undalmalarining negizida insonga ishora qiluvchi ma'no ko'chishi bor, demakki, bu apostrofalarning bari antropotsentrik konseptual metafora xarakteridadir. Shu bilan birga, ular **abstraktomorfik metaforaga** ham misol bo'ladi. *Taxt* apostrofasi esa o'z egasi bo'lmish shohlarni nazarda tutgani, *taxt* va *podshoh* o'rtasida o'zaro aloqadorlik, bog'liqlik mavjudligi bois konseptual metonimiyaga misol bo'ladi.

Yana bir misol: "*Senga o'ptirgandir Vosvos manglayin*" [Sakina; B. 260]. "Bir muarrixga" she'ridan olingan ushbu misrada "vosvosning manglayini o'pish" abstraktomorfik metaforasi negizida mansab tufayli vasvosaga berilib ketgan, o'z xalqi o'tmishi, tarixini qora bo'yoqlarda bo'rtirib tasvirlagan shaxs – muarrix (tarixchi) tanqid qilinganiga guvoh bo'lamiz. Yoki: *Irfonning qo'llarin, qanotin kesding, Yovuz saodatsen, yonglishqon ko'lka ("Siyovush")* [Sakina; B. 266]. Bu yerda *irfon, saodat, ko'lka* mavhum otlari negizida butun she'r ko'chma ma'no asosiga qurilgan bo'lib, yanglishgan *ko'lanka (ko'lka – soya)* – bu *taxt* timsoli hisoblanadi. U *irfon*, ya'ni ilm-ma'rifat(urfon)ning qo'llarini, qanotini kesgani, ya'ni taraqqiyotiga to'sqinlik qilgani sababli yovuz saodat(baxt)ga – baxtsizlikka qiyoslanmoqda.

## XULOSA (CONCLUSION)

Xulosa qilib aytganda, til va madaniyat mushtarakligi ko'proq metaforada ko'zga tashlanadi, uning asosini esa antropotsentrik metaforalar tashkil qiladi. Metaforik tizimda antropotsentrik metaforaning bu xususiyati tilda inson omilining o'rni va roli bilan belgilanadi. Shu bois til va madaniyat mushtarakligi insoniy faoliyat bilan bevosita bog'liq narsa va hodisalar haqidagi tushunchalar antropotsentrik metaforizatsiya jarayonida muhim rol o'ynaydi. Umuman olganda, poetik metaforalarning lingvistik tahlili, mohiyati va o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish til taraqqiyotida dolzarb masalalardan biri sifatida o'z tadqiqotchilarini kutmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES):

1. Dedaxanova, M. (2023). Oliy ta'limda o'zbek tili fanini noan'anaviy usulda o'rgatishning ahamiyati. Interpretation and researches, (1(4)). <https://doi.org/10.5281/zenodo.7748110>
2. Dedakhanova, M. (2023). Teaching the Subject of " Nature and Man" in Foreign Language Groups Based on Innovative Technologies. Journal of Innovation Creativity and Art. (<http://jica.innovascience.uz/index.php/jica/article/view/110/104>)
3. Muazzam, D. . (2023). Oliy Ta'limda "Milliy Qadriyatlar – Millat Iftixori" Mavzusini Interfaol Metodlar Asosida Tashkil Etish. JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE, 2(3), 24–28. Retrieved from (<http://jeev.innovascience.uz/index.php/jeev/article/view/35>)
4. Azimov, I. M. (2023). THE PROBLEM OF VOWELS IN THE UZBEK LANGUAGE. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 5(04), 73-81.
5. Azimov, I. (2022). "O'zbek yangi alifbasini tuzishda asalar" risolasi xususida. Uzbekistan: Language and Culture, 4(4).
6. Begmatov E., Uluqov N. (2006) O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati. - Namangan: NamDU nashri.
7. Ergasheva G.I. (2018) Turli tizimdagi tillarda genderga oid terminologiyaning shakllanishida lingvistik va ekstralingvistik omillar. F.f.dok. avtoref. – T.
8. Nasrullayeva G.S. (2019) Antropotsentrik metaforaning lisoniy, kognitiv va lingvomadaniy aspekti. Fil.f... f.doktori (PhD) dis. avtoref.– Farg'ona.



9. Onomastika haqida – U kim, bu nima – QOMUS.INFO (<https://qomus.info/encyclopedia/category/onomastika-uz>)
10. Umarova, S. Z. (2022). Diwanism in the Literary Environment of Khiva in the XIX-Early XX Centuries. *International Journal of Social Science Research and Review*, 5(8), 196-200.
11. Епишкин Н.И. (2010) Исторический словарь галлицизмов русского языка. – М.: Словарное издательство ЭТС. (<https://gufo.me/dict/gallicisms>)
12. Рауф Парфи. (2013) Сакина // шеърлар Р.Парфи . – Тошкент, Муҳаррир. – Б. 376.
13. Сирожиддинов, Ш., & Умарова, С. (2015). Ўзбек матншунослиги қирралари. *Akademnashr*.
14. Эргашева, Г. (2022). New perspectives of applied linguistics. *Переводоведение: проблемы, решения и перспективы*, (1), 7-10.

